
Yozyovon tumanida ijtimoiy-ma'naviy vaziyat va aholining yashash sharoitlarini o'rganish natijalari bo'yicha ma'lumotnoma

Berilgan topshiriqqa asosan joriy yilning **23 - 29 iyul** kunlari **12 ta ishchi guruhlar** tomonidan Farg'ona viloyati Yozyovon tumanida ijtimoiy-ma'naviy vaziyat va aholining yashash sharoitlari o'rganildi.

Ishchi guruhlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchilari, vazirlik va idoralar, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari, nodavlat notijorat tashkilot rahbarlari boshchilik qilgan holda Yozyovon tumanining **33 ta** mahalla fuqarolar yig'inlarida faoliyat olib bordilar.

Yozyovon tumanida **20 ming 50 ta** xonadonlarda **105 ming 601 nafar** fuqaro istiqomat qilib, ishchi guruh a'zolari tomonidan **16 ming 962 ta (84,6 %)** xonadonlarga kirib chiqildi. O'rganish jarayonida turli yo'nalishlarda **4 ming 822 ta** muammolar aniqlandi.

Mazkur muammolarni **4 315 tasi** yoki umumiy murojaatlarning **89,5 foizi** bugungi kunda **bartaraf etildi**.

Jumladan:

Aholini gaz, elektr energiya va ko'mir bilan ta'minlash bo'yicha:

Tabiiy va suyultirilgan gaz bo'yicha 662 ta muammoli masalalar ko'tarilgan bo'lib, ularning **barchasi** hal etildi.

Farg'ona viloyati gaz bo'yicha ta'minoti hududiy filiali tomonidan **23-29 iyul kunlari** tuman aholisiga **358 dona (131,7 mln.so'mlik)** maishiy gaz ballonlari tarqatildi, shuningdek, **4300 dona** gaz ballonlari **85,98 tonna (60,2 mln.so'mlik)** suyultirilgan gaz bilan to'ldirib berildi.

Tumanda kuzgi-qishgi mavsumga tayyorgarlik ishlarini jadallashtirish maqsadida **28 ta** gaz taqsimlash qurilmalari (GTQ) joriy ta'mirlandi, **300 p/m** gaz quvuri er ostiga olindi, **34 ta** tayanch ustunlar (stoyak) o'rnatildi va **2,8 km** gaz quvurlari bo'yoqlandi. Aholi xonadonlari va ijtimoiy soha ob'ektlarini bir maromda tabiiy gaz bilan ta'minlash maqsadida **71 ta** GTQlarda rejim-sozlash ishlari amalga oshirildi. Shu jumladan tuman Markaziy shifoxonasining gaz xo'jaligidagi **320 p/m** gaz quvurlari va **2 dona** GTQlari bo'yoqlanib, joriy ta'mirlandi, **2 ta** gaz uskunasi taftish qilindi.

Shuningdek, tuman aholisiga uzluksiz suyultirilgan gaz etkazib berishni ta'minlash maqsadida 1 ta ISUZI avtomashinasini sotib olish uchug 279 mln so'm mablag' o'tkazilib, joriy yil 10 avgustiga qadar olib kelinishi belgilandi.

Yozyovon tumani aholisiga 2018-2019 yil kuz-qish davri uchun **6 ming 227 tonna** ko'mir va ko'mir briket mahsulotlari etkazib berish joriy yil sentyabr oyidan boshlab berilishi rejalashtirilgan.

O'rganish davrida (23-29 iyul kunlari) jami **478,4 tonna, jumladan** ijtimoiy soha muassasalariga **417,4 tonna (17 %)** - Xalq ta'limi bo'limiga **204,6 tonna**, Maktabgacha ta'lim bo'limiga **86,8 tonna** va Sog'liqni saqlash bo'limiga **42 tonna** hamda **61 tonna** aholiga ko'mir mahsulotlari keltirib berildi.

Ishchi guruhi tomonidan elektr ta'minotida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida "O'zbekenergo" AJ, "Farg'ona XETK" AJ tomonidan tezkorlik bilan ishlar tashkil etildi.

Elektr energiya bo'yicha jami **358 ta** muammoli masalalar ko'tarilgan bo'lib **166 ta** (46,4%) hal etilgan.

Uyma-uy yurish orqali xonadonlarda o'tkazilgan o'rganishlardan kelib chiqib, "O'zelektroapparat" Ajdan **8 dona** har xil quvvatli yangi transformator punktlari hamda "Elektrqishloqqurilish" AJ ga qarashli "Quvasoy temir beton ishlab chiqarish" korxonasidan **458 dona** temir beton tayanchlar, **80 dona** kommutatsion apparatlari, **2 000 kg** ochiq sim AS-35 hamda **590 dona** SHF izolyatorlari hamda metall konstruksiyalar, jami **2,1 mlrd. so'mlik** ehtiyot qismlar olib kelinib, qurilish-montaj ishlari olib borilmoqda.

Jumladan, Qorasoqol mahalla fuqarolar yig'inida 3 ta, Yoshlik, Qo'rg'oncha, Guliston, Xonobod, Markaziy Farg'ona MFY hududlariga 1 tadan jami **8 ta** har xil quvvatdagi transformator punktlarini o'rnatish ishlari olib borilmoqda. SHuningdek, **3,9 km** uzunlikdagi 0,4-10 kVli havo elektr tarmoqlari rekonstruksiya ishlari yakunlanmoqda. Bundan tashqari, **6 ta** transformator punktlari va **16,5 km** uzunlikdagi havo tarmoqlari

mukammal ta'mirlandi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida tumandagi jami **33 ta** mahallalardagi **8732 ta** aholi xonadonlarining, **38 ta** ijtimoiy soha muassasalari va **565 ta** tadbirkorlik sub'ektlarining elektr ta'minoti yanada yaxshilandi.

Toza ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha:

Tumanda **21 km** (16,0%) ichimlik suvi tarmoqlari ta'mirga muhtoj bo'lib, aholini ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi **63 foizni** tashkil etadi.

O'tkazilgan o'rganishlarda **332 ta** murojaatlarning ijrosini ta'minlash va aholini ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash maqsadida **26 ta** MFY ning suvlashmagan ko'chalariga jami **1 mlrd. 50 mln so'mlik 37,4 km** ichimlik tarmog'ini tortish, **5 dona** suv minorasini ta'mirlash, **12 dona** suv nasoslari o'rnatish, **2 dona** toza ichimlik tik suv qudug'ini qazish ishlari belgilangan.

Suv tarqatish inshootlaridagi tik suv quduqlariga **7 dona** suv nasosi o'rnatish ishlari bajarildi. Ishtirxon va Cho'liguliston mahalla fuqarolar yig'inlarida **2 ta** ichimlik tik suv qudug'ida burg'ulash ishlari amalga oshirilmogda. Aholining suvlashmagan ko'chalariga **34,2 km** tarmoq tortish ishlari amalga oshirildi.

Yuqorida amalga oshirilgan ishlar natijasida qo'shimcha **2152 ta** xonadon yoki **17216 nafar** aholi ichimlik suvi bilan ta'minlanib, aholini ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi **79 foizga ko'tariladi**.

Ichki yo'llarni holatini yaxshilash bo'yicha:

Tumanda **908,0 km** ichki yo'llar mavjud bo'lib, ularning **504,1 km (55 %)** dan ortig'i ta'mirtalab holatda.

Ishchi guruh tomonidan o'tkazilgan o'rganishlar davomida ko'chalardagi ichki yo'llarni holatidan norozi bo'lib va ta'mirlashni so'rab aholidan **335 ta** murojaatlar kelib tushgan.

Murojaatlarni hal etish maqsadida **34 ta** ko'chalardagi **9,1 km** yo'llarda shag'allash, **5,1 km** asfaltlash, **5 ta joyda** piyodalar yo'laklarini chizish hamda **12 dona** yo'l belgilarini o'rnatish ishlari amalga oshirildi.

Ko'p qavatli uylar hududidagi **1,6 km metr** uzunlikdagi asfalt qoplamaga o'tkazildi, **470 metr** maydondagi shag'al qoplamasi yotqizildi hamda **3,5 m3** yo'l bardyurlari o'rnatildi.

O'tkazilgan xasharlar bo'yicha:

Tuman **33 ta** mahalla fuqarolar yig'inlarida joriy yilning **23-28 iyul kunlari** hasharlar tashkil etildi.

Hasharlarda jami 8 731 nafar aholi, jumladan 5 394 nafar yoshlar ishtirok etdi hamda 140 ta yuk mashinalari va texnika vositalari jalb etildi.

O'tkazilgan hasharlarda:

- **79,4 gektar** er maydonlari obodonlashtirilib, **34,5 km** ariq va lotoklar tozalandi.

- **27 716 dona** daraxtlarga shakl berilib oqlandi, **3000 tup** har xil turdagi gul ko'chatlari ekildi.

- aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida hashar yo'li bilan **7,3 km** masofada qazish ishlari amalga oshirildi;

- **20 ta** ehtiyojmand oilalar uy-joylari ta'mirlandi;

- **16 ta** ta'lim muassasalari xashar yo'li bilan obodonlashtirildi;

- **25 ta** ziyoratgoh va qabristonlar tozalanib, obodonlashtirildi;

- **137,7 tonna** maishiy va qurilish chiqindilar chiqarib tashlandi.

Melioratsiya va tomorqalarni sug'orish tizimini yaxshilash bo'yicha:

Tuman fuqarolardan tushgan 171 ta murojaatlarda ko'tarilgan muammolarni hal etish maqsadida qo'shimcha ravishda jami **23 ta** mexanizmlar, shundan **5 ta** ekskavatorlar jalb etilib, "Yangiobod", "Guliston", "Soybo'yi", "Suvliariq", "Toshxovuz" MFYlarida **7,6 km.dan ortiq** uzunlikda kollektor-drenaj tarmoqlarida ta'mirlash-tiklash ishlari amalga oshirilishi natijasida **1074 dan ortiq aholi** tomorqalarida er osti sizot suvlari sathini pasayishiga hamda "Soybo'yi", "Do'stlik". "Yangiobod", "Yuqori soybo'yi", "Guliston" va "Qoratepa" MFYlari hududida **3,5 km** uzunlikda ichki sug'orish tarmoqlarini tozalash va ta'mirlash tadbirlari natijasida **280 ta aholi** tomorqalariga sug'orish suvi etkazilish ta'minoti yaxshilanishiga erishildi.

Shuningdek, tumanning Toshloq tumaniga chegara hududi hisoblangan "Gaston", "Ishtirxon" MFY hududidagi **1280 ta** aholi tomorqalariga, ayniqsa yoz oylarida o'tgan 15 yil davomida sug'orish suvi ta'minotida muammolar bo'lib kelganligi aniqlanib, 300 l/sek suv chiqarib berish quvvatiga ega bo'lgan nasos agregati aholi punktiga yaqin bo'lgan hududga ko'chirib o'tkazildi. Viloyat Elektrtarmoqlari hududiy boshqarmasi tomonidan **250 metr** elektr tarmog'i tortildi, 160 Kvt yangi transformator o'rnatildi. Ushbu ishlar amalga oshishi natijasida **1280 ta** aholi tomorqalari sug'orish suvi ta'minoti yaxshilandi.

Aholi sog'lig'ini saqlash yo'nalishida jami 400 ta muammo aniqlandi.

Tumanda **8 ta** birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalari mavjud bo'lib, ularda **11 nafar** umumiy amaliyot shifokorlari etishmasligi, aholiga patronaj xizmatining etarli darajada tashkil etilmayotganligi o'z vaqtida birlamchi malakali tibbiy yordam ko'rsatilishiga salbiy ta'sir etmoqda.

O'rganishlar davrida **9066 nafar** aholi tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, ularning **277 nafari** uyida tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Tibbiy ko'rikdan o'tganlarning **2602 nafarida** kasalliklar aniqlanib, **2432 nafar** fuqaroga ambulator tarzda, **139 nafar** fuqaroga tuman markaziy shifoxonasida, **31 nafar** fuqaroga viloyat shifoxonalarida davolanish uchun yo'llanmalar berildi.

Shuningdek, **6 nafar** fuqarolarga nogironlik guruhi belgilandi. Shu bilan birga, **40 nafar** nogironlar maxsus aravachalar bilan ta'minlanib, **8 nafariga** qo'ltiq tayoq va **8 nafar** nogironga eshitish moslamasi berildi.

Maktabgacha ta'lim tizimi bo'yicha:

Tumandagi jami **8 ming 499 nafar** 3-7 yoshli bolalarning **3 ming 373 nafari (40%)** 21 ta davlat va 1 ta nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasiga qamrab olingan.

O'rganish jarayonida fuqarolar tomonidan maktabgacha ta'lim bilan bog'liq **98 ta** murojaatlar kelib tushdi.

Ishchi guruhi tomonidan aholi muammolarini o'rganish jarayonida maktabgacha ta'lim muassasalariga joylashtirish masalalarida aniqlangan barcha murojaatlar o'rganib chiqilib, tegishli tartibda **32 nafar bolalar maktabgacha ta'lim muassasalariga joylashtirildi.**

Shu bilan birga, aholi bilan uchrashuvlarda tushgan takliflardan kelib chiqib, tuman tadbirkorlari tomonidan **13 ta** yangi zamonaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasini tashkil etish manzilli dasturiga kiritildi.

O'rganish davomida 15 ta muassasaning isitish tizimini ta'mirlash va qozonlarni yangilash, 6 ta muassasani rekonstruksiya qilish va 8 ta muassasani kapital ta'mirlash zarurligi aniqlandi. Mazkur muassasalarda ishlarni tashkil etish uchun 2,68 mlrd so'm mahalliy byudjet mablag'lari ajratildi.

Bugungi kunda 2 ta maktabgacha ta'lim muassasasida rekonstruksiya, 4 ta muassasada kapital ta'mirlash hamda 5 tasida issiqlik tizimi va yozgi ayvonlar qurish ishlari yakunlanmoqda. Jami mahalliy byudjet hisobidan 554 mln so'm o'zlashtirildi.

Xalq ta'limi tizimini o'rganish davomida tumandagi **36 ta** umumta'lim maktablaridan **6 tasi** ta'mirlab, **6 tasida** isitish tizimidagi qozonlar ta'mirga muhtoj hamda **8 tasini** atrofi qo'rg'on devor bilan qisman o'ralmaganligi aniqlandi. Mazkur maktablarda, xususan 3-son umumta'lim maktabida isitish qozoni ta'mirlandi, 8, 9, 31, 34, 14, 20, 23, 24-son umumta'lim maktablarda devor qurish ishlari boshlandi. **6 ta** maktablarni ta'mirlash ishlarini amalga oshirish 2019 yil Davlat dasturiga takliflar kiritildi.

Shuningdek, **15 ta** umumta'lim maktablarni joriy ta'mirlash va jihozlash uchun **2 mlrd 300 mln. so'm**

mablag'lar 2018 yilgi mahalliy byudjetdan ajratildi.

Tumandagi umumta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan **1228 nafar** o'qituvchilarning **1092 nafari (89%)** malakasini oshirgan.

Maktablarda tahsil olayotgan **16 ming 742 nafar** o'quvchilarning **15 ming 76 nafari (90,0%)** to'garaklarga jalb etilgan.

2018 yil 24 iyul kuni hududda aholi, ayniqsa uyushmagan yoshlarning ma'naviy ongini yanada yuksaltirish, ularning kitobga bo'lgan qiziqishini oshirish, bilimlarini shakllantirish maqsadida **"Kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish - buyuk maqsadlarimizga erishishning kafolatidir"** shiori ostida kitob targ'iboti tadbiri tashkil etildi.

Aholining bandligini ta'minlash bo'yicha:

Tuman bandlik bo'limining hisobotiga ko'ra, tumanda mehnatga layoqatli aholining **6 ming 118 nafari (10,5 %)** ishsizdir.

Tumanda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi yo'nalishida yangi loyihalarni aniqlash, yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilmagan.

Natijada **7 ming 113 nafar** fuqarolar uzoq muddatga chet mamlakatlarga chiqib ketgan.

Xorijdan qaytgan fuqarolarning bandligini ta'minlash masalasida bir qator kamchiliklarga yo'l qo'yilgan.

30 yoshgacha bo'lganlar soni **26 ming 250 nafarni (26 %)** tashkil etib, shundan ish bilan ta'minlanmagan uyushmagan yoshlar soni **2 ming 652 nafarni (10,0 %)** tashkil etadi.

Chetdan qaytgan **141 nafar** yoshlardan **25 tasi** ish bilan ta'minlangan. O'rganish davomida ishga joylashtirish bo'yicha kelib tushgan **541 ta** murojaatlardan, **307 nafari** ishga joylashtirildi, shulardan **28 nafari** haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan amalga oshirilgan ishlar natijasida:

Ishga joylashish uchun yo'llanma berilib, ishga joylashganlar soni **186 ta**;

Jamoat ishiga yuborilganlar soni **133 ta**;

Kasbga qayta tayyorlash uchun ro'yxatga olinganlar soni **23 ta**;

O'z tadbirkorligini boshlash xoxishida bo'lgan **17 ta** fuqaroga kredit ajratilgan;

ro'yxatga olingan xunarmandlar soni **100 ta**, va ularga Ustoz-Shogird asosida o'qitishga talab bo'yicha ro'yxatga olinib, biriktirilgan yoshlar soni **720 ta**;

ro'yxatga olingan tadbirkorlar soni **5 ta**.

Jami **1184 ta** fuqaroning bandligi ta'minlangan

Shu bilan birga, ishsiz fuqarolar bandligini ta'minlash maqsadida joriy yilning **24-25-26-27 iyul** kunlari sayyor "Mehnat yarmarkasi" tashkil etildi.

Yarmarkaga jami 1380 nafar ish izlovchi fuqarolar qatnashib shundan, 1111 nafar fuqaroning bandligi ta'minlandi, shundan:

197 nafar ish izlovchi ishga joylashgan, shundan:

170 nafar fuqarolarga iqtisodiyotning turli yo'nalishlari bo'yicha yo'llanma berilib ishga joylashishga ko'maklashildi;

27 nafar fuqarolarga jamoat ishlariga jalb qilinishi bo'yicha yo'llanmalar berildi;

20 nafar fuqaro Toshkent shahridagi KOIKA o'quv markaziga kasbga qayta tayyorlashga ro'yxatga olindi;

6 nafar fuqaro chel elda faoliyat yuritish uchun ro'yxatga olinib, dastlabki xujjatlarni tayyorlash uchun ko'rsatmalar berildi.

Hunarmandlar uyushmasi tomonidan **820** nafar hotin-qizlar tanlab olinib, Ustoz-Shogird asosida o'qitishga talab bo'yicha ro'yxatga olindi;

O'z tadbirkorligini boshlamoqchi bo'lgan fuqarolardan kredit olish va bankning qolgan imtiyozlaridan samarali foydalanish bo'yicha **61 ta** murojaat tuman banklariga kelib tushib ulardan **17 ta** murojaat ijobiy hal etilgan, qolgan **44 ta** murojaatning xujjat tayyorlash ishlari olib borilmoqda.

7 nafar fuqaroga tikuv dastgox etkazib berish bo'yicha "Maqsad ko'rkam orzu" OK bilan shartnoma imzolandi.

Qolgan **269** nafar maslahat so'rab murojaat qilgan fuqarolarga turli yo'nalishlarda maslahatlar berildi.

Aholining ehtiyojmand qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha:

Tumanda o'rganish davomida aholining kam ta'minlangan, ehtiyojmand qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlash masalalarida kelib tushgan muammolarni bartaraf etish maqsadida **140 ta** oilalarga **20 mln.so'mlik** bir martalik moddiy yordam tarqatildi.

Tumanda o'rganish davomida aholining kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaka masalalarida jami **113 ta** muammolar kelib tushgan bo'lib, ushbu muammolarni to'liq bartaraf etish jarayonida me'zon asosida tayinlangan **30 nafar** fuqarolarga jami **72,8 mln.so'mlik** ijtimoiy nafaqalar tayinlandi.

Shuningdek, tumandagi kam ta'minlangan ehtiyojmand bo'lgan **2 ta** oila bepul uy-joy bilan ta'minlandi, **37 ta** oilaning uy-joylari ta'mirlandi, 70 ta oilalarga maishiy texnikalar tarqatildi, **25 ta** oilalarga 1250 ming so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari berildi.

Ta'mirlash ishlariga 1600 dona shifer, 15 tonna fasad uchun kraska, poydevor qurishga 100 kub metr dan ortiq shag'al, 15 kub metr qurilish qum, 4 tonna sement, 25 ming dona g'isht, 15 kub metr taxta mahalliy byudjet va xomiylar hisobidan beg'araz berildi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari va bank krediti ajratilishi bo'yicha:

415 ta muammoli masala ko'tarilgan bo'lib, **bugungi kunda ularning barchasi** hal etildi.

Shuningdek, xonadonlarda uyma-uy o'rganishlar davomida tadbirkorlikni yo'lga qo'yish istagida "Har bir oila-tadbirkor" Dasturi doirasida **81** nafar fuqarolar hamda tadbirkorlik sub'ektlariga **1 174,1 mln.so'm** tijorat banklarining imtiyozli kreditlari ajratildi.

Jumladan:

48 ta fuqaroga **510,4 mln.so'm** issiqxona tashkil etish uchun;

9 ta fuqaroga **136,5 mln.so'm** qo'y sotib olish uchun;

17 ta fuqaroga **183,2 mln.so'm** tikuvchilik va hunarmandchilikni rivojlantirish uchun;

2 ta fuqaroga **50 mln.so'm** mebel ishlab chiqarishni tashkil qilish hamda taxta maxsulotlarini qayta ishlashga;

5 ta tadbirkorlik sub'ektlariga qurilish materiallari ishlab chiqarishga, hunarmandchilik va tikuvchilikni tashkil qilishga hamda sanoat maxsulotlarini ishlab chiqarishga jami **294 mln.so'm** tijorat banklarining imtiyozli kredit mablag'lari ajratildi.

SHu bilan birga, **267** nafar fuqarolarga **3 605 mln.so'm** tijorat banklari imtiyozli kreditlar ajratilishi bo'yicha xujjatlar tayyorlandi.

Jumladan:

35 ta fuqaroga **522 mln.so‘m** issiqxona tashkil etish uchun;

62 ta fuqaroga **1 263 mln.so‘m** chorva mollari va qo‘y sotib olish uchun;

23 ta fuqaroga **305 mln.so‘m** parrandachilikni rivojlantirish uchun;

145 ta fuqaroga **440 mln.so‘m** tikuvchilik hamda hunarmandchilikni rivojlantirish uchun;

2 ta qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hamda muzlatkich tashkil qilish uchun **975 mln.so‘m** tijorat banklarining kredit mablag‘lari ajratilishi belgilandi.

Bundan tashqari, sanoat, xizmat ko‘rsatish, qayta ishlash sohalarida umumiy qiymati **104 mlrd. 975 mln so‘mlik 93 ta** loyiha ishlab chiqildi, ushbu loyihalar amalga oshirilishi bilan **538 ta** yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

Ko‘p qavatli uylarda amalga oshirilayotgan ishlar bo‘yicha:

Olib borilgan ishlar natijasida ko‘p qavatli uylar oldiga qurilgan **85 dan** ziyod noqonuniy qurilmalar bartaraf etildi.

Hududdagi **29 ta ko‘p qavatli uylarning** tom qismini shifer bilan qoplash, kirish yo‘laklari, fasad qismlarini mukammal ta‘mirlash ishlari boshlandi. **8 ta** ko‘p qavatli uylarning fasad qismi to‘liq ta‘mirlandi hamda **1 ta** bolalar maydonchalari tashkil etildi.

Shuningdek, mazkur mahallada joylashgan **“Obod Yurt Saxovati” XUJMSHga qarashli 17-ta uylar, “Mulk Begim Xonim” XUJMSHga qarashli 4 ta uy, “Eskimo Servis” XUJMSHga qarashli 3 ta uylar hamda “Yozyovon Obod Guzar” XUJMSHga qarashli 5 ta uylarning** tom qismini shifer qoplamasi bilan yopish, fasad qismini ta‘mirlash, uy atrofidagi noqonuniy qurilmalarni bartaraf etish, obodonlashtirish ishlari boshlandi.

Obodonlashtirish dasturiga asosan, **“Bahor” MFY** hududida joylashgan **“Mustaqillik”** ko‘chasidagi **102, 104, 18, 16, 14, 91, 93, 95, 97 uylar, “Pillachilar” ko‘chasidagi 14, 15-uyalar hamda “Vodstroy” massivida joylashgan 17 ta** uylarning old qismida beton qoplamasi yotqizish, irrigatsiya tarmoqlarini tiklash, zamonaviy tashqi yoritish tizimini o‘rnatish, ichki yo‘llarni tekislash va shag‘allash ishlari davom ettirilmoqda.

Tuman hududidagi ko‘p qavatli uy-joylar oldiga **10 ta** bolalar maydonchasi, **12 ta** tandırxona, **3 ta** xojatxona hamda **348 ta** omborxona (kladovka) qurish rejalashtirilib, hozirda qurilish ishlari boshlandi, **670 dan** ziyod hasharchilar obodonlashtirish ishlariga jalb qilindi.

Buning natijasida **1 650** nafar fuqarolarning yashash sharoitlari yaxshilanadi.

Tumandagi qayd etilgan muammolarning qolgan **507 tasi** (10,5%) tegishli viloyat boshqarma va shahar tashkilotlariga o‘rnatilgan tartibda hal qilish uchun yetkazilib, ularni bartaraf etishga ko‘maklashish ishlari davom etmoqda.

2018-08-03 17:26:09